

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3/1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3/1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3/1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARINI PROGNOZLASHNING SOTSIOLOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....5

2. Пак Полина

ЦИФРОВАЯ СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....12

3. Вахидова София

ФАКТОРЫ, ПРЕДСКАЗЫВАЮЩИЕ ПРИВЕРЖЕННОСТЬ ГЕНДЕРНЫМ СТЕРЕОТИПАМ В ОТНОШЕНИИ МУЖЧИН: ОПЫТ МНОЖЕСТВЕННОГО РЕГРЕССИОННОГО АНАЛИЗА.....21

4. Abduvalieva Mumtozxon, Qo'ldosheva Iroda

BOLALAR IJTIMOYIY HIMOYASINING XALQARO STANDARTLARI VA GLOBAL RIVOJLANTIRISH TENDENSIYLARI.....29

5. Bozorova O'lmasxon

DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZASIYASIDA YOSH RAHBARLAR IJTIMOYIY KAPITALINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....37

6. Adilova Rayxon

IBN SINONING "SIYOSAT"RISOLASIDA "DAVLAT ICHIDAGI DAVLAT" NAZARIYASI.....44

7. Artikbayeva Nazokat

YOSHLARDA INTERNETGA QARAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOYIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....52

8. Arifxodjayeva Luiza

YOSH RAHBARLARDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI BAHOLASH TIZIMI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....58

9. Махмудова Малика

ЛАТЕНТНАЯ «ВИНОВНОСТЬ ЖЕРТВЫ» КАК БАРЬЕР ДОСТУПА ЖЕНЩИН К ПРАВОСУДИЮ ПО ДЕЛАМ О СЕМЕЙНОМ НАСИЛИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....65

10. Тилепова Гулайым

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИЕЙ.....76

11. Bekchanova Sevinch

NOGIRONLIGI BOR BOLALAR OTA-ONALARINING INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA ISHTIROKI: "SHAXSIY JASORAT"DAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIKKA (TOSHKENT SHAHRI SERGELI TUMANI MISOLIDA).....90

12. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIGA INSTITUTSIONAL MOSLASHUVINI BAHOLASHNING SOTSIOLOGIK MEZONLARI.....97

13. Azizov S.

MARKAZIY OSIYO VA YAPONIYA XALQLARI O'RTASIDAGI ILK MADANIY-SIVILIZATSIYAVIY ALOQALAR: TARIXIY-METODOLOGIK TAHLIL.....105

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Abdullayev Sardorbek,

IIV Akademiyasi “Xizmat psixologiyasi
va kasbiy madaniyati” kafedrası boshlig‘i o‘rinbosari,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail:asardorbek77777@gmail.com

PROFESSIONAL TA'LIM BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIGA INSTITUTIONAL MOSLASHUVINI BAHOLASHNING SOTSIOLOGIK MEZONLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21498700>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga institutsional moslashuvini baholashning sotsiologik mezonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda bitiruvchilarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ta'sir etuvchi institutsional omillar, jumladan, professional ta'lim muassasalari, ish beruvchilar, bandlik xizmatlari hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'zaro hamkorligi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida sotsiologik tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert baholash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida bitiruvchilarning institutsional moslashuv darajasini baholashga xizmat qiluvchi asosiy sotsiologik mezonlar tizimlashtirildi hamda ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Shuningdek, professional ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi institutsional hamkorlikni kuchaytirish, ish beruvchilar ishtirokini kengaytirish hamda bitiruvchilarning kasbiy moslashuvini baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, bitiruvchi, mehnat bozori, institutsional moslashuv, sotsiologik mezonlar, bandlik, kasbiy kompetensiya, ish beruvchi, institutsional hamkorlik, mehnat bozori integratsiyasi.

Абдуллаев Сардорбек,

заместитель начальника кафедры служебной психологии и профессиональной культуры
Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, доктор философии (PhD)
по социологическим наукам, доцент.
e-mail:asardorbek77777@gmail.com

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ВЫПУСКНИКОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К РЫНКУ ТРУДА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются социологические критерии оценки институциональной адаптации выпускников профессионального образования к рынку труда. Исследовано влияние институционального взаимодействия между системой профессионального образования,

рынком труда и работодателями на профессиональную адаптацию и занятость выпускников. В ходе исследования использованы методы социологического анализа, сравнительного анализа, экспертной оценки и обобщения. На основе полученных результатов систематизированы основные социологические критерии оценки уровня институциональной адаптации выпускников к рынку труда, а также определено влияние институциональных факторов на обеспечение их занятости. Кроме того, разработаны научно-практические рекомендации, направленные на развитие сотрудничества между образовательными учреждениями и работодателями, совершенствование формирования профессиональных компетенций в соответствии с требованиями рынка труда и обеспечение успешной интеграции выпускников в сферу занятости. Результаты исследования могут быть использованы при совершенствовании системы профессионального образования, повышении уровня занятости выпускников и развитии механизмов подготовки кадров, соответствующих современным потребностям рынка труда.

Ключевые слова: профессиональное образование, выпускник, рынок труда, институциональная адаптация, социологические критерии, занятость, профессиональные компетенции, работодатель, институциональное сотрудничество.

Abdullayev Sardorbek,

Deputy Head of the Department of Service Psychology and Professional Culture, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology, Associate Professor
e-mail:asardorbek77777@gmail.com

SOCIOLOGICAL CRITERIA FOR ASSESSING THE INSTITUTIONAL ADAPTATION OF VOCATIONAL EDUCATION GRADUATES TO THE LABOUR MARKET

ABSTRACT

This article examines the sociological criteria for assessing the institutional adaptation of vocational education graduates to the labour market. The study investigates the impact of institutional interaction among vocational education institutions, employers, labour market institutions, and government support mechanisms on graduates' professional adaptation and employment outcomes. A combination of sociological analysis, comparative analysis, expert evaluation, and generalization methods was employed to identify the key factors influencing graduates' successful integration into the labour market. Based on the empirical findings, a system of sociological criteria for assessing the level of institutional adaptation was developed, enabling a comprehensive evaluation of the effectiveness of institutional cooperation in facilitating graduate employment. The study also identifies the role of professional competencies, employer participation, labour market monitoring, and institutional support in strengthening graduates' competitiveness. Furthermore, scientific and practical recommendations are proposed to improve cooperation between vocational education institutions and employers, enhance institutional mechanisms for labour market integration, and align vocational training with current labour market demands. The findings contribute to the development of evidence-based approaches aimed at improving the quality of vocational education and ensuring sustainable employment opportunities for graduates.

Keywords: vocational education, graduates, labour market, institutional adaptation, sociological criteria, employment, professional competencies, employers, institutional cooperation, labour market integration.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida professional ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga mos ravishda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda yangi

kasblarning shakllanishi professional ta'lim tizimiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayonda bitiruvchilarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi faqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga emas, balki ularning institutsional moslashuv darajasiga ham bevosita bog'liq.

Professional ta'lim bitiruvchilarining bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, ularning mehnat bozoriga moslashuvini baholashning yagona sotsiologik mezonlari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bandlik darajasi ko'pincha faqat ishga joylashish ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Biroq mehnat bozoriga moslashuv jarayoni kasbiy kompetensiyalar, hududiy imkoniyatlar, ish beruvchilar bilan hamkorlik, axborot ta'minoti, davlat institutlari faoliyati hamda ijtimoiy omillarni o'z ichiga oluvchi murakkab sotsiologik hodisa hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan professional ta'lim bitiruvchilarining institutsional moslashuvini baholashning ilmiy asoslangan sotsiologik mezonlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga institutsional moslashuvini tavsiflovchi asosiy sotsiologik mezonlarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish hamda baholashning kompleks modelini ishlab chiqishdan iborat.

Yangi O'zbekistonda "2025-yilda 5 million aholimiz daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylandi. Kambag'al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog'chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bu yildan boshlab, 208 ta bog'chada birinchi marta inklyuziv ta'lim tizimini joriy etildi. Ta'kidlash kerakki, yurtimizda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi" [2].

Hozirgi kunda mamlakatimizda professional ta'lim tizimini takomillashtirish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash yo'nalishida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash, zamonaviy kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilib, ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi aholi bandligini ta'minlashning ijtimoiy mexanizmlarini sotsiologik jihatdan yangi ilmiy yondashuvlar asosida chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida "har bir shaxsning munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsiz mehnat sharoitlarida ishlash, adolatli haq olish hamda ishsizlikdan qonun asosida himoyalanih huquqi kafolatlangan"ligi [1, – B.15-16] belgilab qo'yilgan bo'lib, bu me'yoriy-huquqiy asoslar bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashning asosiy institutsional mexanizmlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga institutsional moslashuvini baholashning sotsiologik mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli, institutsional hamda funksional yondashuvlardan foydalanildi.

Empirik ma'lumotlar professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari, ish beruvchilar hamda bandlik xizmatlari mutaxassislari ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida umumlashtirildi. Tadqiqot davomida anketa so'rovi, ekspert baholash, yarim strukturalashgan intervyu hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Respondentlarni tanlashda proporsional tanlanma usuli qo'llanilib, namunaviy hajm Cochran formulasi asosida aniqlandi. Tadqiqot natijalari SPSS hamda Microsoft Excel dasturlari yordamida qayta ishlanib, korrelyatsion va qiyosiy tahlil usullari orqali baholandi.

Bitiruvchilarning institutsional moslashuvini baholash uchun quyidagi indikatorlar ishlab chiqildi:

- kasbiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasi;
- mutaxassislik bo'yicha ishga joylashish ko'rsatkichi;
- mehnat bozoriga kirish tezligi;
- ish beruvchilar tomonidan berilgan baholar;
- bandlikning barqarorligi;
- kasbiy qayta tayyorlash imkoniyatlari;

- davlat va xususiy sektor hamkorligi samaradorligi [5].

Mazkur indikatorlar asosida professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashuvini baholashning kompleks sotsiologik modeli ishlab chiqildi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot natijalari professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga institutsional moslashuvini ta'minlashda bir qator sotsiologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. O'tkazilgan empirik tahlillar natijasida bitiruvchilarning bandlik darajasi nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligi, balki ta'lim muassasalari, ish beruvchilar, bandlik organlari hamda mahalliy ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligi bilan ham bevosita bog'liqligi aniqlandi.

1300 nafar professional ta'lim bitiruvchilari hamda 55 nafar ekspert ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuviga ta'sir qiluvchi asosiy institutsional omillar tizimlashtirildi (1-jadval, 1-rasm).

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashuvida eng muhim omil kasbiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi hisoblanadi.


1-jadval

Professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga institutsional moslashuviga ta'sir qiluvchi omillar

№	Omillar	Ta'sir darajasi (%)	Baholash
1	Kasbiy kompetensiyalar darajasi	86,4	Yuqori
2	Amaliyot bazalarining sifati	81,7	Yuqori
3	Ish beruvchilar bilan hamkorlik	79,8	Yuqori
4	Bandlik xizmatlari faoliyati	74,5	O'rtacha
5	Kasbiy maslahat tizimi	72,9	O'rtacha
6	Hududiy mehnat bozori imkoniyatlari	68,3	O'rtacha
7	Raqamli bandlik platformalari	64,7	Past

Respondentlarning aksariyati ishga joylashishda nazariy bilimdan ko'ra amaliy ko'nikmalar hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, amaliyot bazalarining zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilishi hamda ish beruvchilar bilan doimiy hamkorlik bitiruvchilarning bandlik darajasini sezilarli ravishda oshirishi aniqlandi.

Professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga institutsional moslashuviga ta'sir qiluvchi omillar

№	Omillar	Ta'sir darajasi (%)	Baholash
1	 Kasbiy kompetensiyalar darajasi	86,4 	Yuqori 
2	 Amaliyot bazalarining sifati	81,7 	Yuqori 
3	 Ish beruvchilar bilan hamkorlik	79,8 	Yuqori 
4	 Bandlik xizmatlari faoliyati	74,5 	O'rtacha 
5	 Kasbiy maslahat tizimi	72,9 	O'rtacha 
6	 Hududiy mehnat bozori imkoniyatlari	68,3 	O'rtacha 
7	 Raqamli bandlik platformalari	64,7 	Past 

1-rasm. Professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga institutsional moslashuviga ta'sir qiluvchi omillar

Hududlar kesimida o'tkazilgan qiyosiy tahlil Toshkent shahri hamda Navoiy viloyatida mehnat bozori institutlari faoliyati nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini, qishloq hududlarida esa bandlik infratuzilmasini rivojlantirish zarurati saqlanib qolayotganligini ko'rsatdi. Empirik tahlillar asosida professional ta'lim bitiruvchilarining institutsional moslashuv darajasini kompleks baholash imkonini beruvchi integral ko'rsatkich ishlab chiqildi. Mazkur ko'rsatkich kasbiy kompetensiya, ish beruvchilar bahosi, bandlikning barqarorligi, mehnat bozori moslashuvi, hududiy imkoniyatlar hamda raqamli xizmatlardan foydalanish darajasini o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, professional ta'lim tizimida ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari hamda bandlik xizmatlari o'rtasidagi institutsional hamkorlik kuchaygan sari bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuv ko'rsatkichlari ham ortib borishi kuzatildi. Mazkur holat professional ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda ijtimoiy hamkorlikning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda bandlikka ko'maklashuvchi institutlar faoliyatini sotsiodinamik yondashuv asosida takomillashtirish, ishsizlikni individual va ijtimoiy darajada tahlil qilish hamda bitiruvchilarni ijtimoiy guruhlar xususiyatlaridan kelib chiqib differensial yondashuv asosida bandlikka yo'naltirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, quyidagi ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqildi: milliy mehnat bozorini tartibga solishda institutsional hamkorlikni kuchaytirish va kasbiy tizimlar asosida bandlik infratuzilmasini rivojlantirish; tadbirkorlik faoliyatini sotsiologik tasniflash asosida bitiruvchilar bandligini hududiy va demografik xususiyatlar bilan uyg'unlashtirish; mehnatdan qoniqish darajasini oshirish orqali ijtimoiy farovonlikni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish; bandlik institutlari faoliyatini milliy va global mehnat bozori talablariga moslashtirish; hamda "mahalla – ta'lim – ishlab chiqarish – qayta tayyorlash – mehnat bozori" tizimi doirasida ijtimoiy hamkorlikni institutsional-funksional jihatdan rivojlantirish zarurligi asoslanadi [7].

Dissertant tomonidan taklif etilgan tamoyillar professional ta'lim tizimida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur yondashuvlar orqali tizimdagi mavjud muammolarni bartaraf etish va uning samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib berildi. Shuningdek, ushbu bobda tadqiqot doirasida professional ta'lim sifati hamda bandlikni ta'minlash mexanizmlarini baholashga xizmat qiluvchi monitoring indikatorlari tizimi ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval.

Ta'lim sifatining kompozit indikatorining grafik modeli [5]

O'quv dasturlari zamonaviyligi (W1)	
Bitiruvchilar bilim darajasi (W2)	
Amaliy ko'nikmalar darajasi (Ish beruvchi bahosi) (W3)	
TA'LIM SIFATI INDEKSI (TSI) $TSI = W1 \cdot X1 + W2 \cdot X2 + W3 \cdot X3$ (W1+W2+W3 = 1)	

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan indikator professional ta'lim sifatini kompleks baholashga xizmat qilib, uning tarkibida uchta asosiy komponent: ta'lim dasturlarining zamonaviylik darajasi, bitiruvchilarning nazariy tayyorgarligi hamda amaliy ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi (ish beruvchilar bahosi asosida) ajratib ko'rsatib berildi.

Ushbu komponentlarning tanlanishi mehnat bozori ehtiyojlarining dinamik o'zgarishi, ta'lim mazmunining yangilanish jarayonlari hamda bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga moslashuv darajasi bilan uzviy bog'liq holda asoslab berildi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida ta'lim sifati va samaradorligi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, professional ta'lim tizimi – iqtisodiyotning raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlanishida muhim rol o'ynaydi. Sifatli va samarali professional ta'lim xizmatlari jamiyatning innovatsion salohiyatini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy talablarini qondirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda nafaqat ichki ta'lim resurslari, balki keng ko'lamdagi ijtimoiy omillar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [4].

O'zbekiston Respublikasini Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni [3], sohaga tegishli bo'lgan qarorlari hamda asarlarida professional ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash mexanizmlari haqida ilgari surilgan g'pyalari va tgamoyillari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Ijtimoiy hayot taraqqiyoti qonuniyatlari, ta'lim, bandlik va kasb-hunar masalalariga oid ilmiy qarashlar tarixan shakllanib kelgan. Mazkur masalalarga doir sotsiologik yondashuvlar antik davr mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Sitseron va Protagor asarlarida ham ta'lim, ijtimoiy tartib va jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalar yoritilgan bo'lib, ular jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Yunon va Rim faylasuflarining ta'lim va bandlik haqidagi qarashlari: Platonning "Davlat" asarida jamiyatdagi ijtimoiy rollarni taqsimlash va ta'limning ahamiyati asoslab berilgan [6]. Unga ko'ra, jamiyat barqarorligi har bir shaxsning o'z vazifasini anglab, ta'lim orqali shakllangan mas'uliyatni bajarishiga bog'liq. Aristotelning "Nikomax axloqi" va "Siyosat" asarlarida ta'lim shaxsiy taraqqiyot bilan birga jamiyat barqarorligi va axloqiy mukammallikning asosi sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo allomalari – Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ho'ja Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy va Alisher Navoiy asarlarida o'z aksini topgan. Ularning ilmiy merosida ta'lim, kasb-hunar va shaxsning ijtimoiylashuvi masalalari muhim o'rin egallaydi.

Mazkur yo'nalish xorijiy olimlar – P.Thompson, B.Claussen, R.Kegan, M.Friedman, M.Granovetter va R.Swedberg [7] tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, ularda mehnat faoliyati, ish o'rinlarini tashkil etish hamda bandlik jarayonlari tahlil qilingan. Bandlik muammolari, uning rivojlanish istiqbollari hamda davlat taraqqiyotidagi o'rni klassik iqtisodiyot namoyandalari – A.Okun, A.Smith, K.McConnell, D.Ricardo, A.Marshall, I.Fisher va J.Keynes [8] asarlarida sabab-oqibat bog'liqligida ilmiy asoslangan.

Shuni ta'kidlash joizki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda bandlik va ish bilan ta'minlash masalalari turli nazariy yondashuvlar asosida keng yoritilgan bo'lsa-da, mazkur muammoning professional ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqligi etarli darajada kompleks va sotsiologik nuqtai nazardan o'rganilmagan. Shuningdek, bitiruvchilarning mehnat bozoriga kirib borish jarayonlari, ularning kasbiy moslashuvi hamda zamonaviy sharoitda bandlikni ta'minlash mexanizmlarining takomillashuvi bilan bog'liq jihatlar alohida tadqiqot obyekti sifatida etarlicha yoritilmagan. Aynan ushbu jihatlar mazkur dissertatsiyaning ilmiy yo'nalishini belgilab berib, professional ta'lim bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashni sotsiologik yondashuv asosida kompleks tarzda o'rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ko'p jihatdan ta'lim sifati, amaliy tayyorgarlik hamda mehnat bozori institutlari bilan hamkorlik darajasiga bog'liqligini ko'rsatdi. Olingan natijalar xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ekspertlari kasbiy ta'lim tizimining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilishi yoshlar bandligini oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi [9]. OECD tadqiqotlarida ham ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi institutsional hamkorlik bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashi qayd etilgan [10].

Ta'lim tizimini tartibga soluvchi ijtimoiy qatlamlarning shakllanish tendensiyasi, bandlik muammolarini hal etishda ta'lim tizimining ijtimoiy mexanizm sifatidagi o'rni hamda mehnat bozorida bandlikni ta'minlovchi ijtimoiy institutlar faolligining ortib borishi bandlikning yangi konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi, ayniqsa, mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, yuqori intellektual salohiyatga ega zamonaviy kadrlarni tayyorlash dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va isloh qilish zarurligini ko'rsatadi [6].

Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Biroq O'zbekiston sharoitida hududlar kesimida mehnat bozori imkoniyatlarining notekisligi, ish beruvchilar bilan hamkorlik darajasidagi tafovutlar hamda amaliy tayyorgarlikning barcha ta'lim muassasalarida bir xil darajada yo'lga qo'yilmaganligi bitiruvchilar bandligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Shu nuqtai nazardan, professional ta'lim tizimida mehnat bozori monitoringini kuchaytirish, dual ta'lim elementlarini keng joriy etish hamda ish beruvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish bitiruvchilarning institutsional moslashuvini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida baholanadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga institutsional moslashuvi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish darajasi, amaliy tayyorgarlik sifati, ish beruvchilar bilan hamkorlik hamda bandlik institutlari faoliyati samaradorligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Tahlillar asosida professional ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish bitiruvchilarning mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish ko'rsatkichlarini oshirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, dual ta'lim elementlarini keng joriy etish, ishlab chiqarish korxonalarining ta'lim jarayonidagi ishtirokini faollashtirish hamda hududiy bandlik dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlari asosida takomillashtirish bandlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashuvini baholashda institutsional omillarni kompleks hisobga olish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur yondashuv bitiruvchilarning kasbiy moslashuv darajasini aniqlash, bandlik siyosati samaradorligini baholash hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- professional ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi institutsional hamkorlikni tizimli ravishda rivojlantirish;
- mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam monitoring qilish va prognozlash tizimini takomillashtirish;
- bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashda ish beruvchilar ishtirokini kengaytirish;
- professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashuvini baholovchi sotsiologik indikatorlar tizimini amaliyotga joriy etish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi professional ta'lim tizimining mehnat bozori bilan integratsiyasini kuchaytirish, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning barqaror bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF–158-son Farmoni. – Toshkent, 2023.
4. Abdullayev S.U. Social factors ensuring the quality and effectiveness of vocational education. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. 2025.

5. Abdullayev S.U. Monografiya. Yangi O‘zbekistonda ta’lim va bandlik: bandlikni oshirishning ijtimoiy mexanizmlari. – Toshkent, 2024.
6. Abdullayev S.U., Karimjonov O.A. Обеспечение занятости выпускников профессионального образования: теоретические подходы и социальная политика. Urganch davlat pedagogika instituti axborotnomasi, 2025. №4.
7. Thompson P. The Nature of Work: An Introduction to Debates on the eLabour Process. L., 1989, Slaussen B. Health and re-employment in a two year follow up or long term unemployed // Epidemiol. Community Health. 1993. V. 47, Kegan R. In over our heads: The mental demands of modern life. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1994, Friedman M. Money and Economic Development/ M.Friedman// 1973. №4. – R.70. Otsifrovano 2011, Granovetter M., Swedberg R. (eds.). The Sociology of Economic Life. Boulder, Oxford, 1992.- R.56.
8. Artur Melvin Okun (Arthur Melvin Okun, 1928–1980) – amerikalik iqtisodchi, “Okun qonuni” muallifi, Adam Smit (Adam Smith, 1723-1790) — shotland iqtisodchisi, zamonaviy iqtisodiy nazariya asoschilaridan biri. Iqtisodiyot sohasidagi asosiy asari: “Xalqlar boyligining mohiyati va sabablari xususidagi tadqiqotlar” (1976), David Rikardo (David Ricardo, 1772 -1823) — ingliz iqtisodchisi, siyosiy iqtisodiyot klassigi. Asosiy asari: “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish prinsiplari” (1817). Sochineniya. – M.:1961. -360 s, Alfred Marshall (1842—1924) — ingliz iqtisodchisi, iqtisodiyot fanida yangi klassik yo‘nalishi asoschilaridan
9. International Labour Organization (ILO): Building Future-Ready Vocational Education and Training Systems
10. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2024.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000